

NEOFIX

TEXNIK TAVSIF

Texnik xususiyatlari

NEOFIX – bu ichki ishlar uchun mo‘ljallangan, nafas oluvchi (bug‘ o‘tkazuvchan) mustahkamlovchi akril gruntidir. Uning juda mayda zarrachalardan iborat maxsus akril smolalariga asoslangan tarkibi mahsulotning chuqur singishini (5 mm gacha) ta’minlab, devorning samarali mustahkamlanishi va izolyatsiyasini kafolatlaydi; uvalanib ketadigan yoki yuqori shimuvchan yuzalar, eski suvoqlar, asbestsement devorlar va umuman olganda, ichki yuzalarning barcha turlari uchun eng mos keladigan vositadir. Hidi past, yonmaydi, inson salomatligi va atrof-muhit uchun maksimal darajada xavfsiz.

Qo‘llanish sohasi

Ichki devorlar.

Asosni (yuzani) tayyorlash

Yuzani tozalab, ko‘chayotgan va qatlamlanib ketgan qismlarini olib tashlang. Yangi suvoq bo‘lsa, asos yaxshi qurigan va qotgan bo‘lishi kerak.

Surish usuli

O‘rtacha shimuvchanlikka ega yuzaga ichimlik suvi bilan 50% gacha suyultirilgan NEOFIX mahsulotidan bir qatlam surting. Ko‘chayotgan, yomon shimuvchi yuzalarga esa ichimlik suvi bilan 100% gacha suyultirilgan materialdan ikki qatlam surting. Ikkinchi qatlamni birinchisi hali nam (ho‘l) bo‘lgan vaqtda cho‘tk (kist), valik yoki soplosi 1.3 mm bo‘lgan kraskapult (bo‘yoq purkagich) yordamida surtish kerak. Pardoqlash qatlamini surishdan oldin 4-6 soat kuting.

Texnik xususiyatlari: Surtish jarayoni

Ko‘rsatkich	Tavsif / Shartlar
Suyultirish	Ichimlik suvi bilan 50 - 100%
Sarfi	Izolyatsiya qilinishi kerak bo‘lgan asosga qarab: 14 - 18 kv.m/l
Surtish asboblari	Cho‘tk, valik, kraskapult (soplosi 1.3 mm)
Surtish harorati	+5°C dan +36°C gacha (nisbiy namlik 80% dan yuqori bo‘lmagan holatda)
Yuzaki qurish vaqti	1 - 2 soat (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)
To‘liq qurish vaqti	10 - 12 soat (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)

Ko'rsatkich	Tavsif / Shartlar
Ustidan qayta bo'yash vaqti	4 - 6 soatdan keyin (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)
Asboblarni tozalash	Suv bilan

Texnik xususiyatlari: Mahsulot

Ko'rsatkich	Tavsif / Qiymat
Tarkibi	Suvli dispersiyadagi akril smolalari hamda surtish va yuza bilan yopishish (adhezziya) jarayonini osonlashtiruvchi qo'shimchalar.
Solishtirma og'irligi	1 kg/l +/- 3%
pH	7 - 8
Yopishqoqligi	50 +/-5% CPS Brukfeld (25°C da RVT 20 aylanish/min).
Saqlash harorati	+2°C dan +36°C gacha. Muzlashdan asrang
Olovga reaksiya	Agar tarkib yonmaydigan yuzaga surtilsa – manfiy (yonmaydi); qurigan holatdagi qalinligi 0,600 mm dan kam bo'lgan suv asosidagi material.
Uchuvchi Organik Birikmalar (VOC) ajralishi bo'yicha cheklov	2004/42/CE Ko'rsatmasiga (Direktiva) muvofiq tegishli klass: A/ h; VOC: 1 g/l (maksimal); I-faza cheklovi (1.1.2007-yildan): 50 g/l, II-faza cheklovi (1.1.2010-yildan): 30 g/l
Qadoqlanishi	1 - 4 - 10 - 20 litr

Toksikologik ko'rsatkichlar

Mahsulot tarkibida xrom va qo'rg'oshin kabi og'ir metallar mavjud emas. Shundan tashqari, tarkibida zaharli, aromatik, xlor tutuvchi erituvchilar yo'q. Sog'liq uchun xavfli bo'lgan polimerizatsiya jarayoni kuzatilmaydi. Ko'rsatmalarga muvofiq ishlatilganda mahsulot xavfsiz modda hisoblanadi. Suv asosidagi bo'yoqlar bilan ishlashda odatdagi ehtiyot choralariga rioya qilish tavsiya etiladi. Saqlash va tashish uchun hech qanday maxsus choralar ko'zda tutilmagan; idishlar, qoldiqlar va tasodifiy to'kilgan bo'yoqlar qum, tuproq va shunga o'xshash inert adsorbent materiallar yordamida yig'ib olinishi hamda amaldagi



milliy yoki mintaqaviy qoidalarga muvofiq utilizatsiya qilinishi kerak. Tashish xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Asosiy texnik shartlar

Yuzani tozalab, ko'chayotgan qismlarini olib tashlang. Yangi suvoq holatida asos yaxshi qurigan va qotgan bo'lishi kerak. O'rtacha shimuvchanlikka ega yuzaga OIKOS kompaniyasining NEOFIX gruntidan bir qatlam surting. Ko'chayotgan va yomon shimuvchi yuzalarga ikki qatlam surting. Ikkinchi qatlam birinchisi hali nam bo'lgan vaqtda surtilishi kerak. Yakuniy pardozlash qatlamini surishdan oldin 4 - 6 soat kuting.

Surtishning barcha qoidalariga rioya qilinishi shart.

Eslatmalar

OIKOS srl kompaniyasi ushbu texnik tavsifda keltirilgan ma'lumotlar tegishli texnik va ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda eng xolis va aniq tarzda taqdim etilganini kafolatlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga qaramay, OIKOS o'z mahsulotini qo'llash natijasida olingan natijalar uchun hech qanday javobgarlikni zimmasiga olmaydi, chunki mahsulotni surish va qo'llash usullari kompaniyaning nazorati yoki tekshiruvi doirasidan tashqaridadir.

Shu sababli, har bir mahsulotning muayyan sharoitga va har bir alohida holatga mos kelishini oldindan tekshirib ko'rish tavsiya etiladi.



ООО "COLORLAB"

г. Ташкент, Яшнабадский район Паркентский рынок, 13-блок

Тел: +998 98 304 30 33 +998 99 866 89 88

